



UDK: 32(027.1)

Lola BERDIYEVA,

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti mustaqil izlanuvchisi

Professor, DSc N.Abdullayeva taqrizi asosida

REFORMS IMPLEMENTED IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN IN THE FIELD OF ENSURING CHILDREN'S RIGHTS

Annotation

This article comprehensively analyzes the legal, institutional, and socioeconomic reforms implemented to protect and ensure children's rights. From a scientific perspective, it examines the improvement of the national legislative framework for children's rights, the implementation of international law, and priority areas of state policy in this area. It also explores the reforms aimed at creating equal opportunities for children in education and social protection, fostering an inclusive environment, and supporting vulnerable children.

Key words: children's rights, reforms, legislation, social protection, education, inclusive education.

РЕФОРМЫ ОСУЩЕСТВЛЯЕМЫЕ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН В СФЕРЕ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРАВ РЕБЁНКА

Аннотация

В данной статье всесторонне анализируются правовые, институциональные, а также социально-экономические реформы, реализуемые в сфере защиты и обеспечения прав ребёнка. С научной точки зрения рассмотрены вопросы совершенствования национальной законодательной базы в области обеспечения прав ребёнка, имплементации норм международного права, а также приоритетные направления государственной политики в данной сфере. Кроме того, раскрывается содержание реформ, направленных на создание равных возможностей для детей в сферах образования и социальной защиты, формирование инклюзивной среды и поддержку социально уязвимых категорий детей.

Ключевые слова: права ребёнка, реформы, законодательство, социальная защита, образование, инклюзивное образование.

O'ZBEKISTONDA BOLA HUQUQLARINI TA'MINLASH BO'YICHA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR

Аннотация

Mazkur maqolada bola huquqlarini himoya qilish va ta'minlash sohasida amalga oshirilayotgan huquqiy, institutsional hamda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar har tomonlama tahlil qilinadi. Bola huquqlarini ta'minlashning milliy qonunchilik bazasini takomillashtirish, xalqaro huquq normalarini implementatsiya qilish hamda ushbu sohada davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, ta'lim, ijtimoiy himoya sohasida bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratish, inklyuziv muhitni shakllantirish va ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlar mazmuni ochib berilgan.

Kalit so'zlar: bola huquqlari, islohotlar, qonunchilik, ijtimoiy himoya, ta'lim, inkyuziv ta'lim.

Kirish. Bola huquqlarini ta'minlash va ularni ishonchli himoya qilish har qanday demokratik va huquqiy davlatning eng ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki bola jamiyatning eng nozik qatlami bo'lib, uning huquq va manfaatlari ta'minlanishi mamlakatning kelajak taraqqiyoti, inson kapitali sifati va ijtimoiy barqarorligi bilan bevosita bog'liqdir. Bola huquqlariga rioya etish nafaqat davlat organlari, balki butun jamiyat zimmasiga yuklatilgan mas'uliyat bo'lib, mazkur yo'nalishdagi samarali siyosat insonparvarlik, adolat va qonuniylik tamoyillarining amaliy ifodasidir.

Davlatimiz mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab bolalar huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan izchil va kompleks huquqiy-tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda. Xususan, milliy qonunchilik bazasi xalqaro standartlarga muvofiq ravishda takomillashtirilib, BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi va boshqa xalqaro hujjatlar milliy huquq tizimiga implementatsiya qilindi. Ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya, bolalik va oila institutini qo'llab-quvvatlash sohasida

tizimli islohotlar amalga oshirilib, bolalar uchun munosib shart-sharoitlar yaratish davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishiga aylandi.

Ayniqsa, so'nggi yillarda O'zbekistonda inson huquqlari, jumladan bola huquqlarini ta'minlash masalasi yangi bosqichga ko'tarildi. Inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha milliy strategiyalarning qabul qilinishi, bolalarga nisbatan zo'raonlikning har qanday ko'rinishiga barham berish, ularning ta'lim olish, sog'lom rivojlanish va ijtimoiy himoyaga bo'lgan huquqlarini kafolatlashga qaratilgan institutsional mexanizmlarning joriy etilishi bu boradagi islohotlarning yaqqol ifodasidir. Shu nuqtai nazardan, bola huquqlarini ta'minlash masalasini ilmiy-huquqiy jihatdan tahlil qilish, mavjud muammolar va istiqboldagi vazifalarni belgilab olish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bola huquqlarini ta'minlash va ularni har tomonlama himoya qilish har qanday demokratik davlatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Zero, bola shaxsining erkin kamol topishi, uning ta'lim olish, sog'lom hayot kechirish, ijtimoiy himoya va xavfsiz muhitda yashash huquqlarining

kafolatlanishi jamiyatning barqaror taraqqiyoti va kelajagini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri sanaladi. Shu ma'noda, bola huquqlariga rioya etish davlatning insonparvarlikka asoslangan siyosatining muhim mezonini hisoblanadi. Ayniqsa, mamlakatda olib borilayotgan demokratik islohotlar jarayonida bola huquqlarini ta'minlash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi [1]. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti o'z nutq va ma'ruzalarida bolalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ular uchun munosib shart-sharoitlar yaratish, bolalik davrini himoya qilish davlatning eng muhim vazifalaridan biri ekanini alohida ta'kidlab kelmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xususan, "Yangi O'zbekiston - inson qadri ulug'lanadigan davlat" tamoyili asosida qabul qilingan islohotlar doirasida bola huquqlari inson huquqlarining ajralmas bir qismi sifatida qaralmoqda. So'ngi yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan strategiyalarda ta'lim tizimini isloh qilish, bolalar salomatligini muhofaza qilish, ijtimoiy himoyani kuchaytirish, yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan aniq va manzilli vazifalar belgilab berilgan. Mazkur strategiyalarda bolalarning huquq va manfaatlarini ta'minlash barqaror rivojlanishning asosiy shartlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Bundan tashqari bosh qomus konstitutsiyada ham quyidagi normalar belgilab qo'yilgan..... bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir deyilgan [2]. Albatta bugun bola huquqlarini ta'minlash, ularni sog'lom ma'naviy muhitda ta'lim tarbiya olishi, zo'ravonlikni har qanday ko'rinishidan himoya qilishda konstitutsiyada belgilab qo'yilganidek davlat bilan birgalikda jamiyat va ot-onalar ham birdek mas'ul va javobgar ekanligi dolzarb ahamiyat kasb etayotganligini ta'kidlash joiz.

Shuningdek, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasida bola huquqlarini himoya qilish masalasi alohida ustuvor yo'nalish sifatida belgilanib, xalqaro standartlar va BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi talablarini milliy qonunchilik va amaliyotga to'liq joriy etish vazifasi qo'yilgan. Prezident nutqlarida bolalarga nisbatan zo'ravonlikning har qanday ko'rinishiga muvofiq munosabatda bo'lish, ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, davlat organlari va jamiyatning bu boradagi mas'uliyatini kuchaytirish zarurligi doimiy ravishda ta'kidlanib kelinmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bola huquqlarini ta'minlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni ilmiy-huquqiy tahlil qilish, ularning samaradorligini baholash hamda mavjud muammolarni aniqlab, takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqilmoqda.

Bu borada, bolalar huquqlari bo'yicha vakil - ombudsman institutining joriy etilishi bola manfaatlarini himoya qilishda muhim qadam bo'ldi. Mazkur institut bolalarning huquq va qonuniy manfaatlarini buzilishining oldini olish, ular bo'yicha murojaatlarni ko'rib chiqish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini ta'minlashda samarali mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda. Ombudsman faoliyati orqali bola huquqlariga oid masalalarni tizimli tahlil qilish, muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish amaliyoti yo'lga qo'yilgan [3].

Shu bilan birga, davlat boshqaruvi organlari faoliyatida "bola manfaatlarini ustuvorligi" tamoyilini joriy etish kuchaytirildi. Bu tamoyil normativ hujjatlar qabul qilish jarayonida bolalarning ijtimoiy, psixologik va huquqiy ehtiyojlarini hisobga olishni nazarda tutadi. Natijada ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya va huquqiy sohalarida bolalarga nisbatan yondashuvlar sifat jihatdan yangilandi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mahalliy darajada esa vasiylik va homiylik organlari faoliyati qayta ko'rib chiqilib, ularning vakolatlari aniqlashirildi va mas'uliyati oshirildi. Ayniqsa, ijtimoiy xavfli sharoitdagi, ota-ona qaramog'isiz qolgan yoki zo'ravonlikka uchragan bolalar bilan ishlash tizimi tubdan takomillashtirildi. Bu borada idoralararo hamkorlik mexanizmini kuchaytirish, profilaktik ishlarga alohida e'tibor qaratish va erta aniqlash tizimini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, ijtimoiy xizmatlar tizimining rivojlantirilishi bolalarni institutsional tashkilotlarga joylashtirish o'rniga oilaviy muhitda qo'llab-quvvatlashga qaratilgan yondashuvlarni kengaytirishga xizmat qildi. Pedagoglar, psixologlar, huquqshunoslar ishtirokida kompleks yordam ko'rsatish amaliyoti joriy etilib, bolalarning ijtimoiy moslashuvi va huquqiy himoyasi mustahkamlanib bormoqda.

Bola huquqlarini ta'minlashda ta'lim sohasi ayniqsa, maktabgacha ta'lim tizimi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, u bolaning shaxs sifatida shakllanishi, jamiyat hayotida faol ishtirok etishi va o'z salohiyatini to'liq namoyon qilishi uchun mustahkam zamin yaratadi. Shu bois so'nggi yillarda maktabgacha ta'lim sohasini isloh qilish, uni xalqaro standartlar asosida rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Avvalo, maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar bolaning erta rivojlanish huquqini ta'minlashga qaratilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari qamrovining kengayishi, xususiy sektor ishtirokining rag'batlantirilishi hamda ta'lim-tarbiya sifatiga qaratilgan yangi standartlarning joriy etilishi bolalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga erta jalb etish imkonini bermoqda. Bu esa bolalarning aqliy, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, keyingi ta'lim bosqichlariga muvaffaqiyatli tayyorlanishiga xizmat qilmoqda.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maxsus sharoitlarni yaratish, pedagoglarning kasbiy malakasini oshirish hamda individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqish orqali barcha bolalar uchun teng ta'lim imkoniyatlari ta'minlanmoqda [4]. Shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonida bolaning fikr bildirish, mustaqil qaror qabul qilish va ijodiy salohiyatini rivojlantirish huquqlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'quv dasturlarining yangilanishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va raqamli ta'lim vositalarining joriy etilishi bolalarda mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda ijtimoiy himoya va bolalarning huquqlarini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, kam ta'minlangan oilalardagi bolalarning ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishi va ularni mehnatning eng yomon shakllaridan himoya qilish muhim ahamiyatga ega. Bunday chora-tadbirlar bolalarning huquqiy, ma'naviy va jismoniy rivojlanishini ta'minlash, ularni ijtimoiy xavflardan muhofaza qilish maqsadida amalga oshiriladi.

Bola huquqlari himoyasi zamonaviy jamiyatdagi eng muhim ijtimoiy-huquqiy masalalardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, bola huquqlarini ta'minlashda hali ham bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Ularning asoslari qonunlarni amaliyotga to'liq tatbiq etishdagi qiyinchiliklar, aholining huquqiy madaniyatini tushunish darajasi yetarli emasligi hamda bolalar bilan ishlaydigan mutaxassislarining salohiyatini yuksaltirish zarurati bilan bog'liq.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotlardan ma'lumki, mamlakatlarda bola huquqlari sohasidagi qonunchilik asoslari mavjud bo'lsa-da, ularni amalga oshirishda qator to'siq va kamchiliklar kuzatiladi. Masalan, Xalqaro bola huquqlari monitoring ma'lumotlariga ko'ra, bolalarga nisbatan huquqbuzarlik holatlari ko'pincha oilaviy va ijtimoiy muhitda

ro'yi bermoqda, va bu vaziyatda mahalliy organlar va ijtimoiy xizmatlar samarali aralashuv imkoniyatiga ega emas. Shuningdek, moliyaviy va kadrlar resurslarining cheklanganligi, himoya mexanizmlarining noto'liqligi qonunlarning to'liq bajarilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bola huquqlarini samarali ta'minlash uchun davlat va fuqarolik jamiyatining faol hamkorligi zarur. Buning uchun birinchi navbatda, ota-onalar, pedagoglar va keng jamoatchilik orasida huquqiy madaniyatni oshirish muhim ahamiyatga ega. Xususan, ta'lim hamda jamoat tashkilotlarida bola huquqlari mavzusida targ'ibot va seminarlar tashkil etish, ommaviy axborot vositalari orqali aholiga huquqiy ma'lumotlarni yetkazish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Kelgusida bolalarning fikrini inobatga olish va ularning qaror qabul qilish jarayonlarida ishtirokini ta'minlash bola huquqlarini rivojlantirishda muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Masalan, ta'lim tashkilotlarida va mahalla faoliyatida bolalar kengashlari tashkil etilib, ularning fikr-mulohazalari asosida yangi dasturlar va loyihalar ishlab chiqiladi. Shu bilan birga, bolalarning ijtimoiy faolligini rag'batlantirish, shaxsiy mas'uliyat va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, bolalarning qaror qabul qilishda faol ishtirok etishi ularning huquqiy madaniyatini oshirishi va ijtimoiy integratsiyasini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Masalan, UNISEF va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalar kengashlari faoliyat yuritgan ta'lim tashkilotlarida bolalarning o'z fikrini erkin ifodalash imkoniyati 40 -50% ga oshadi va bu ularning ijtimoiy faolligini mustahkamlaydi [5].

Bolalarning huquqlarini ta'minlashda kelgusidagi istiqbollar qatorida quyidagilarni ham qayd etish mumkin:

- qonunchilikni takomillashtirish va uning ijrosini nazorat qilish – qonunlardagi kamchiliklarni bartaraf etish va amaliyotda samarali qo'llash mexanizmlarini yaratish.

- mutasaddilar va mutaxassislarni tayyorlash – ijtimoiy xizmat xodimlari, pedagoglar va psixologlarning malakasini oshirish, zamonaviy usullar bo'yicha treninglar o'tkazish.

- jamiyatda huquqiy madaniyatni oshirish – ota-onalar, pedagoglar va keng jamoatchilik orasida bola huquqlari haqida xabardorlikni oshirish.

- bolalarning faol ishtirokini rag'batlantirish – ularning fikrini hisobga olish, yangi dastur va yul xaritalarini ishlab chiqishda ishtiroki uchun shart-sharoit yaratish.

- innovatsion texnologiyalardan foydalanish – elektron platformalar, mobil ilovalar orqali bolalarning fikrini yig'ish va ularning huquqiy ma'lumotga ega bo'lishini ta'minlash.

Shu tariqa, bola huquqlarini ta'minlash va rivojlantirishda tizimli va ko'pqirrali yondashuv zarur. Faqat qonunlarni ijro etish bilan cheklanmasdan, davlat, jamiyat va bolalarning o'zlari ham bu jarayonda faol ishtirok etishi kerak. Bu esa bola huquqlari sohasida barqaror rivojlanishni ta'minlaydi, ularning huquqiy, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishi uchun mustahkam zamin yaratadi. Mamlakatda bolalar huquqlari sohasida izchil siyosat olib borilishi kelgusida jamiyatning barqaror ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bolalarning farovonligi va rivojlanishi, ularning qonuniy manfaatlarining himoya qilinishi, shuningdek, zamonaviy jamiyatning demokratik qoidalari va insonparvarlik tamoyillari asosida shakllanishi, O'zbekistonning global hamjamiyatdagi e'tiborini va obro'sini oshiradi. Shu tariqa, bolalar huquqlari sohasidagi islohotlar nafaqat jamiyatda ijtimoiy adolatni mustahkamlaydi, balki kelgusida sog'lom va bilimli avlodni tarbiyalash, mamlakatning barqaror rivojlanishi va innovatsion salohiyatini yuksaltirishda muhim poydevor vazifasini bajaradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda bolalar huquqlarini ta'minlash sohasida keng ko'lami huquqiy va institutsional islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Mamlakatda bolalarning huquq va manfaatlarini muhofaza qilish uchun qator qonunlar, normativ-huquqiy hujjatlar va maxsus davlat dasturlari ishlab chiqilgan va hayotga tatbiq etilmoqda. Bu islohotlar bolalarning har tomonlama rivojlanishi, sog'lom va xavfsiz muhitda o'sishi, ta'lim olish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga erishishini ta'minlashga qaratilgan. Shu bilan birga, bolalarning huquqlarini himoya qilish sohasidagi institutsional mexanizmlar ham takomillashtirilmoqda. Xususan, bolalarni ijtimoiy himoya qilish, oilada va maktabda zo'rvonlikka qarshi kurashish, bolalarning ovozini eshitish va ularning faol ishtirokiga imkon yaratish kabi yo'nalishlarda samarali chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Islohotlar nafaqat huquqiy, balki ma'naviy va ijtimoiy jihatdan ham bolalarning hayoti sifatini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Mamlakat bolalar huquqlarini xalqaro standartlarga muvofiq shakllantirish uchun izchil qadamlar tashlamoqda va xalqaro hamkorlikni faol yo'lga qo'ygan holda bu sohada katta natijalarga erishmoqda.

Birinchi, mazmunli huquqiy bazaning yaratilgani va takomillashtirilgani bolalar huquqlarini kafolatlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Respublikada bolalarning huquqlarini ta'minlash bo'yicha 100 dan ortiq normati-huquqiy hujjat qabul qilingan, jumladan bolalarni jinoiy javobgarlikka tortish yoshini belgilaydigan normalar, bolalarni zo'rvonlikdan himoya qilish qoidalari o'z aksini topgan. Konstitutsiyada bolalar huquqlari, ularning manfaatlarini himoya qilish hamda to'laqonli rivojlanishini ta'minlash kafolatlari mustahkamlangan.

Ikkinchi, amaliy islohotlar bolalarni ijtimoiy himoya qilish va oiladagi muhitni mustahkamlashga qaratilgan. Yangi dasturlar bolalarni nihoyatda ta'lim-tarbiya yoki uysizligidan saqlash, ularni faqat oilaga bo'lgan munosabatlar orqali qo'llab - quvvatlash kabi prinsiplarga asoslanadi, shuningdek muhtoj oilalarda bolalarni internat yoki sirtqi muassasalarga joylashtirish amaliyoti bekor qilinmoqda.

Uchinchi, bolalarni zo'rvonlikdan himoya qilish va jinoiy javobgarlik tizimini bolalar manfaatlariga muvofiqlashtirishda muhim qadamlar qilinmoqda. "Bolalarni barcha turdagi zo'rvonlikdan himoya qilish" to'g'risidagi qonunni qabul qilindi va bu bo'yicha strategiya va harakatlar rejasi ishlab chiqilmoqda, bu korrupsiyasiz, bolalarning manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yib, profilaktika, tezkor javob va monitoring tizimlarini yo'lga qo'yishni ko'zda tutadi.

To'rtinchi, bolalarning huquqlarini ta'minlashda guruhlararo hamkorlik va jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunda bolalar huquqlarining himoyasi bo'yicha O'zbekiston tomonidan xalqaro tashabbuslarga qo'shilish, mintaqa hamkorlik forumi tashkil etish kabi tadbirlar ham amalga oshirilmoqda, bu mamlakatning global miqyosdagi mas'uliyatini ko'rsatadi.

Beshinchi, xalqaro tashkilotlar, ayniqsa UNICEF va BMT tuzilmalari bilan hamkorlikda sog'liqni saqlash, ta'lim, ijtimoiy xizmatlar va adolat tizimlarini takomillashtirish bo'yicha loyihalar amalga oshirilmoqda, bolalarning umumiy farovonligi va salomatligi uchun yaratilgan sharoitlarni yanada yaxshilaydi.

Natijada, O'zbekistonda bolalar huquqlarini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan islohotlar amaliy natijalar bilan ko'rinish topmoqda - ta'lim va sog'liqni saqlash sohasida teng imkoniyatlar kengaytirilmoqda, bolalarning ijtimoiy xizmatlarga kirish imkoniyatlari oshirilmoqda va ularning huquqiy himoyasi kuchaytirilmoqda. Hozirgi islohotlar jamiyatdagi bolalarning huquqlarini ta'minlashni nafaqat

huquqiy, balki ijtimoiy va madaniy jihatdan ham taqdim etishni ko‘zlab, O‘zbekistonning barqaror rivojlanish strategiyasining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Shunday qilib, bolalar huquqlarini himoya qilish va ularning farovonligini ta‘minlashga qaratilgan bu islohotlar

jamiyat taraqqiyotining asosiy poydevorlaridan biri sifatida ahamiyatini saqlab qoladi va kelajakda yanada kengayishi, real ijtimoiy samaradorlikka erishishi uchun zarur masalalarga e‘tibor qaratilishi davom etishi shart.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida” gi qonuni 2024 yil 11 noyabr, O‘RQ-996
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
3. Inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha milliy strategiyani tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-6012-son Farmon. – Toshkent, 2020.
4. “Maktabgacha ta‘lim va tarbiya” to‘g‘risidagi Qonun. Toshkent. 2019 yil 16 dekabr, O‘RQ-595-son
5. UNICEF. O‘zbekistonda bolalar huquqlarini ta‘minlash holati bo‘yicha tahliliy hisobot. – Toshkent, 2024